

KIBER-JINOYAT HUQUQI: KIBER JINOYATCHILIK FAOLIYATINING YANGI TENDENSIYALARI VA KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA XALQARO HAMKORLIK

Umidjon Rajabov

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSISTETI XALQARO HUQUQ
VA QIYOSIY HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI TALABASI

Annotatsiya: So'nggi yillarda kiberjinoyatchilik bilan bog'liq jinoyatlarning soni va kompyuter tizimlari xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda kiberjinoyatlardan aziyat chekayotgan insonlar dunyoning ko'plab qismlarida mavjud. Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalarining vujudga kelishi va ularga qarshi kurashda muayyan bo'shliqlarning mavjudligi sababli kiberjinoyatchilik bilan bog'liq muammolarning oldini olish mushkul vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada kiberjinoyat tushunchasi va bu kabi jinoyatlarning oldini olish maqsadida qabul qilingan xalqaro standartlar, ya'ni kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari va bugungi kunda butun dunyo davlatlarining ushbu jinoyatlarga qarshi hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlari, ayni damda kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarning butun insoniyatga qay darajada xavf solayotganligi va jahon tajribasi bu borada qanday ishlarni amalga oshirilayotganligi haqida so'z yuritiladi.

Kirish so'zlar: kiberjinoyat, kiberxavfsizlik, kibermakon, kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik, axborot texnologiyalar, internet, komputer jinoyati,

KIRISH

Bugungi hayotni zamonaviy texnologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Uyali aloqa va internet dunyosidagi so'nggi kashfiyotlar uzoqni yaqin, og'irni yengil, biznes imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Biroq, bu qulayliklar boshqa bir sohaga e'tibor qaratmoqda. Kiber-xavfsizlik har bir davlat uchun strategik masala bo'lib qoldi. Avvallari asosan davlat sirlari va yuqori texnologiyalar nishonga olingan bo'lsa, hozir jinoyatchilar mo'ljalni kengroq olmoqda.

XXI asrda axborot texnologiyalari hayotning har bir jabhasida ya'ni il-fan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va shuningdek, davlat boshqaruvida sezilarli o'sish va muayyan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ammo, shu davrga kelib ushbu sohalarni kibermakonda sodir etilayotgan hujumlardan, kiberjinoyatlardan saqlash uchun, axborot va ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, computer ma'lumotlarini, shaxsga doir ma'lumotlarni turli xil virusli dasturlardan, kiberjinoyatchilik bilan shug'ullanayotgan firibgarlardan himoya qilish endi dolzarb vazifaga aylandi. Shu sababli, so'nggi yillarda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish g'oyasini keng ommaga tarqatish va fuqarolarning mazkur kiberjinoyatlarning jabrlanuvchilari bo'lib

qolishlarini oldini olish uchun xalqaro miqyosda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kiberjinoyat tushunchasi va ko'lami ko'p qirrali bo'lib, doimo rivojlanib boradi. Ko'plab olimlar kiberjinoyatni komputar tizimlari yoki tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan, ko'pincha ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarning sizib chiqishi, identifikatorni og'irlash, online firibgarlik va boshqa zararli harakatlar bilan bog'liq jinoyiy faoliyat deb ta'riflaydilar. Ular kiberjinoyatning cheksiz tabiati va jinoyat sodir etishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish kabi o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, global miqyosda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hujjatlar va kelishuvlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

TADQIQOT SAVOLLARI:

1. Bugungi kunda kiberjinoyatchilik faoliyatining qanday yangi tendensiyalari mavjud ?

2. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o'rni va ahamiyati qanchalik darajada muhim ?

Tadqiqotning maqsadi bugungi global dunyoda asosiy muammoga aylangan kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalarini o'rganish orqali va xalqaro hamkorlik vositasida uning oldini olish va unga qarshi kurashish kabi masalalarni tahlil qilishdan iboratdir.

METODLAR

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lganligi bois ularning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyo miqyosida keng qamrovda e'tibor qaratilmoqda. Kibermakondagi kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalarining oldini olish va ularga qarshi kurashish kiberjinoyatchilik avj olib borayotgan bugungi kun uchun juda muhim o'rin tutadi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda ushbu turdagi jinoyatlarning bir nechta o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, kiberjinoyatlar hududni talab etmaydi, ular kibermakonning istalgan hududida amalga oshirilishi mumkin, shuning uchun ham jinoyatchining ijtimoiy xavfli qilmishni qayerdan turib bajarayotganini aniqlash qiyin bo'ladi va shu sababli ham kiberjinoyatlar odatda kech aniqlanganligi sababli ularni oldini olish va ularga qarshi samarali kurash olib borish deyarli imkonsiz hisoblanadi. Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari va ularga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning roli muhim hisoblanadi, ya'ni kundan kunga kiberjinoyatchilikning yangi turlari chiqmoqda va ularni o'z vaqtida oldini olish va unga qarshi kurash olib borish mushkul ish hisoblanadi. Bugungi kunda global muammoga aylangan kiberjinoyatchilikka qarshi xalqaro miqyosda kurashish va qabul qilingan xalqaro standartlar bunday jinoyatlarning ma'lum miqdorda oldini olishga xizmat qiladi.

Dunyoning bir qancha mamlakatlari ham yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlarda belgilangan hamda ko'plab davlatlar tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqning normalariga amal qilgan holda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda o'ziga xos

uslublarni ishlab chiqqanlar. Xususan, "bugungi kunda 50 dan ziyod mamlakatlarida "Virtual olamdagi jinoyatlar va jazo" kabi va shunga o'xshash maxsus qonunlar qabul qilingan"²¹. Rivojlangan davlatlaran biri bo'lgan AQSHning bu boradagi tajribasini o'rganadigan bo'lsak, AQSHda 1978-yildayoq "Kompyuter jinoyatlari to'g'risida"gi akt qabul qilingan edi va shu orqali kiberjinoyatchilarning keltirishi mumkin bo'lgan ulkan zararlari haqida asosli taxmin qilingan. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksiga 1986-yilda kompyuter jinoyatlari uchun javobgarlikni belgilovchi normalar kiritilgan va ushbu jinoyatlar uchun nisbatan og'irroq javobgarlik nazarda tutilgan.

NATIJALAR VA TAHLIL

Kiberjinoyatchilikning yangi tendensiyalari va ularga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalasiga to'xtashdan avval, kiberjinoyatchilik so'ziga qisqacha ta'rib berib o'tsak, bunda O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida belgilanishicha, "axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyat"²² ni tushunamiz, mazkur ta'rifdagi kibermakon so'zi esa axborot texnologiyalari yordamida yaratiladigan muhit ma'nosini anglatadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish o'rinliki, "kiberjinoyat tushunchasi, bugungi kunda ommaviy ravishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar va komputer jinoyatlariga nisbatan kengroq bo'lib, axborotlashtirish sohasidagi barcha jinoyatlarni qamrab oladi."²³ V.A.Nomokonov va T.L.Tropinaning yuqoridagi fikrlariga to'liq ravishda qo'shilgan holda shuni ayta olamizki, kiberjinoyat faqatgina komputerlar orqali emas, balki jahon axborot tarmog'iga ulana oladigan barcha vositalar, misol tariqasida mobil telefon apparati orqali ham sodir etilishi mumkin.

Bevosita ushbu maqolamizda yoritib berishimiz kerak bo'lgan mavzu, ya'ni kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bilamizki, kiberjinoyatchilik faoliyati kundan kunga dunyo miqyosida global, dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muammoga aylanib bormoqda. Texnologiyaning rivojlanishi va kiberjinoyatchilar tomonidan qo'llanadigan strategiyalarning o'zgarishi tufayli kiberjinoyatchilarning faoliyati doirasi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Kiberjinoyatchilar faoliyatidagi yangi tendentsiyalarni o'rganish kiberjinoyatlarning o'zgaruvchan tabiatini tushunishga va samarali qarshi choralarni ishlab chiqishga muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar, tadqiqotlar va empiric dalillar ushbu

²¹ Расулев А.К. Компьютерные преступления: уголовно-правовые и криминологические аспекты. Автореф. дисс... кан. юрид. наук. –Ташкент, 2006. –С27

²² <https://lex.uz/uz/docs/-5960604> O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 3-modda, 15.04.2022 yildagi O'RBQ-764-son

²³ Номоконов В.А, Тропина Т.Л. Киберпреступность как новая криминальная угроза. // Криминология: вчера, сегодня, завтра. –2012 г. –1(24). –С47.

rivojlanayotgan tendensiyalar haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalaridan biri bu Ransomware hujumlari hisoblanadi. Ransomware – bu foydalanuvchi yoki tashkilotning kompyuteridagi fayllarga kirishini taqiqlash uchun mo'ljallangan zararli dastur. Ushbu fayllarni shifrlash va shifrnı ochish kaliti uchun to'lovni talab qilish orqali kiberhujumchilar tashkilotlarni to'lovni to'lash ularning fayllariga kirishni qayta tiklashning eng oson va arzon usuli bo'ladigan holatga keltiradilar. Ba'zi variantlarda to'lovni to'lash uchun ransomware qurbonlarini qo'shimcha rag'batlantirish uchun ma'lumotlarni o'g'irlash kabi qo'shimcha funksiyalar qo'shildi.²⁴ So'nggi yillarda, jismoniy shaxslar, korxonalar va hatto muhim infratuzilma tizimlariga qaratilgan to'lov dasturlari hujumlari chastotasi va murakkabligi sezilarni darajada oshdi. Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalaridan biri bu Cryptojacking hisoblanadi. Cryptojacking – bu ikki so'zdan iborat: ya'ni cryptocurrency va hijacking. Oddiy qilib aytganda, bu kimningdir kompyuteri yoki qurilmasini buzish yoki undan kriptografik qazib olish uchun foydalanish harakatidir. Xaker yaxshi antivirussiz hatto aniqlanmaydigan zararli dasturlarni o'rnatadi.²⁵ Kriptovalyutalar paydo bo'lishi bilan kiberjinoyatchilar kriptovalyutalarni qazib olish uchun ruxsat etilmagan usullardan foydalanishni boshladilar. Ular kriptovalyutalarni qazib olish uchun qurbonlarning hisoblash resurslarini ularning roziligisiz o'g'irlydilar, natijada unumdorlik pasayadi va quvvat sarfi ortadi. Kiberjinoyatchilik faoliyatining yana bir tendensiyalaridan bu BEC (Biznes electron pochta kelishuvi). BEC firibgarligi xodimlarni pul mab'lag'larini o'tkazish yoki maxfiy ma'lumotlarni almashish maqsadida aldash uchun menejer yoki biznes hamkor sifatida namoyon etishni o'z ichiga oladi. Ushbu firibgarlik qurbonlarini aldash uchun ko'pincha ijtimoiy muhandislik usullaridan va buzilgan electron pochta hisoblaridan foydalanadi. Keyingi kiberjinoyatchilik tendensiyalaridan biri bu Hisob ma'lumotlarini kiritish, ya'ni kiberjinoyatchilar bir nechta online platformalarda parollarni qayta ishlatishdan foydalanadilar. Hisob ma'lumotlarini to'ldirish hujumlarida ular turli xil online hisoblarga ruxsatsiz kirish uchun ma'lumotlar sizib chiqishi natijasida olingan og'irlangan hisob ma'lumotlaridan foydalanadilar.

Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalaridan yana biri bu Ijtimoiy muhandislik hujumlari. Ya'ni, Fishing, maqsadli fishing va predlog kabi ijtimoiy muhandislik usullari hali ham keng tarqalgan. Kiberjinoyatchilar odamlarni maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishga yoki tajovuzkorga foyda keltiradigan harakatlarni qilishga majburlash uchun inson psixologiyasini manipulatsiya qiladi. Bugungi kunda kiberjinoyatchilik faoliyatining yana bir keng tarqalgan turlaridan biri bu Deepfake texnologiyasi. Deepfakes real, ammo boshqariladigan audio, video yoki grafik tarkibni yaratish uchun sun'iy intellektdan foydalanishni o'z ichiga olgan turli zararli maqsadlarda deepfakesdan foydalanishi mumkin.

²⁴ <https://www.checkpoint.com/cyber-hub/threat-prevention/ransomware/>

²⁵ <https://cryptomus.com/uz/blog/cryptojacking-protecting-your-digital-assets-from-unauthorized-mining>

Ushbu rivojlanayotgan tendensiyalarni tushunish kiberjinoyatlarni faol ravishda oldini olish, aniqlash va ularga javob berish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu siyosatchilarga, huquqni muhofaza qilish idoralariga va kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislariga samarali strategiyalarni ishlab chiqish, mustahkam xavfsizlik choralarni amalga oshirish va shaxslar, tashkilotlar o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, biz yuqorida ma'lumot berib o'tgan kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari bugungi kunda haqiqatdan ham global dunyoda kundalik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. XXI asr rivojlangan axborot texnologiyalari davrida ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish oson bo'lmaydi, albatta. Ya'ni, ushbu kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari, kibermakondagi firibgarliklar natijasida ushbu jinoyatlardan aziyat chekayotgan insonlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Biz yuqorida ushbu maqolamizning metodlar qismida ushbu jinoyatlarning qanday qilib tez va samarali oldini olishning va ushbu jinoyatchilarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritgan edik.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, kiberjinoyatchilik chegara bilmas ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tish joizdir. Bu orqali biz, kiberjinoyatlar faqatgina muayyan bir davlatni ichida sodir etimasligini bildirib o'tmoqdamiz. Ya'ni mazkur ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etayotgan shaxs milliy chegaralarni kesib o'tib, jahon tarmog'iga ulangan boshqa mamlakatlardagi kompyuterlarning axborot tarmog'iga kirib ham kiber hujumni amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Bu esa bugungi globallashuv jarayonida, dunyo hamjamiyati a'zolarini yakka o'zi emas balki boshqa davlatlar bilan birgalikda harakat qilish, kiber tahdidlarni oldini olishda murosaga kelib, muammoga birgalikda yechim topishga undaydi. S.Tojiyev ta'kidlaganidek, "bunday sharoitda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kiberjinoyatchilikka qarshi birgalikda harakat qilish va uni tekshirish borasida tegishli organlar faoliyatini tartibga solish hamda o'zaro hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish yagona yo'ldir."²⁶

Jahon miqyosda yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun bir necha o'nlab xalqaro konferensiyalar tashkil etildi va shuningdek, xalqaro shartnomalar, pakt hamda rezolutsiyalar qabul qilinib, ularga a'zo bo'ladigan davlatlarning soni hanuz ortib bormoqda. Ularga misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Yevropa kengashining Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (Budapesht konvensiyasi 2001), Yevropa parlamentining "Informatika sohasidagi taraqqiyot munosabatlari bilan shaxs huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Rezolutsiya (1979), Yevropa Ittifoqi Axborotni himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya (1981), kompyuter jinoyatchiligi profilaktikasi

²⁶ Tojiyev S. Kiberjinoyatchilik–shaxs va jamiyat xavfsizligiga tahdid. // www.uza.uz

hamda unga qarshi kurashishga bag'ishlangan BMT Bosh Assambleyasining VIII kongressiga qo'shimcha sifatida Gavana Simpoziumi (1991), Qohira shahrida Kiberhuquqda axborot xavfsizligi va maxfiyligiga bag'ishlangan konferensiya (2008), Kiberjinoyatchilik muammolarini o'rganish institute ko'magida kiberjinoyatchilik muammolariga bag'ishlangan birinchi xalqaro sammit (2003), MDH ga a'zo davlatlarning kiberjinoyatlar holatlarida qo'llaniladigan Tallin ko'rsatmalari (2013)²⁷ kabilar kibermakondagi jinoyatlarning oldini olishda muhim o'rin tutib kelmoqda.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalalarida muhim o'rin tutgan Yevropa kengashining Kiberjinoyatchilikka qarshi Budapesht konvensiyasi haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Budapesht konvensiyasi milliy qonunlarni uyg'unlashtirish, tergov usullarini takomillashtirish va kiberjinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan innovatsion xalqaro shartnomadir. U Fransiyaning Strasburg shahrida Yevropa Kengashi tomonidan Yevropa Kengashining kuzatuvchi bir qancha davlatlari Kanada, Yaponiya, Filippin, Janubiy Afrika va AQSHning faol ishtirokida ishlab chiqilgan. Konvensiya va uning tayyorlangan hisoboti Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasi tomonidan 2001-yil 8-noyabrda 109-sessiyasida qabul qilingan. 2001-yil 23-noyabrda Vengriya poytaxti Budapeshtda imzolash uchun chaqirilgan va 2004-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kirgan. 2020-yil dekabr holatiga ko'ra, 65 davlat konvensiyani ratifikatsiya qilgan, yana to'rtta davlat konvensiyani imzolagan, ammo uni ratifikatsiya qilmagan. Konvensiya Internet va boshqa kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi birinchi xalqaro shartnoma bo'lib, ayniqsa mualliflik huquqining buzilishi, kompyuter bilan bog'liq firibgarlik, bolalar pornografiyasi, nafrat jinoyatlari va tarmoq xavfsizligini buzish bilan bog'liq. Shuningdek, u kompyuter tarmoqlarini qidirish, topish, qo'lga kiritish va qonuniy ravishda jazolash kabi bir qator vakolatlar va tartiblarni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda eng dolzarb masalalaridan biri – bu kiberoxavfsizlikni ta'minlash, sodir etilishi mumkin bo'lgan kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi hisoblanadi. Kiberjinoyat tushunchasi yangi tushuncha bo'lsada, ko'plab davlatlar iqtisodiyotiga qimmatga tushayotgan muammo. “Google” qidiruv tizimiga bo'lgan hujumlardan bilamizki, nafaqat hukumatlar, balki xususiy kompaniyalar ham bu tahdid oldida ojiz. Global iqtisodiy integratsiya bizga ko'p eshiklarni ochib berdi, jinoyatchilarga esa yangi imkoniyatlarni”, - deydi Myuller. Haqiqatdan ham kundalik hayotimizda bunga o'xshash kiberjinoyatlarni ko'p uchratyapmiz, Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, kiberjinoyatlarni oldini olishning asosiy to'siqlaridan biri kiberjinoyatchilar jinoyatni dunyoning istalgan qismidan turib amalga oshira oladi.

²⁷ The Tallinn administration on the international law applicable in case of cyberlaw // www.Cambridge.org/9781107024434

Masalan, qidiruv tizimi bilan mashhur bo'lgan Google korporatsiyasi yaqinda u yuritadigan sistemalar nishonga olingani haqida xabar topdi. Jinoyat Xitoydan turib amalga oshirilgan. Mening fikrimcha, bunday vaziyatlarda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning o'рни muhimdir. Axborot texnologiyalar asrida yashab turgan ekanmiz, bilamizki, ushbu sohaning rivojlanishi va istiqboli bizga ko'plab imkoniyatlarni yaratib bersa, boshqa tomondan esa kiberjinoyatchilarga muayyan eshiklarni ochib beryapti. Internet – xakerlar uchun cheksiz imkoniyatlar dunyosi bo'ldi.

XULOSA.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan zamonda u bilan bog'liq turli tuman muammolar yuzaga kelmoqda. Shunday ekan, internet xavfsizligini ta'minlash va bu kabi kiberjinoyatlarning oldini olish faqatgina davlatning emas, balki internet xizmatidan foydalanayotgan har bir mustaqil shaxsning ham burchi hisoblanmog'i darkor. Yuqorida ko'p marotaba ta'kidlab o'tgan kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalari kibermakonda muayyan xavflar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Biz ushbu tendensiyalarni tahlil qilib qanday natijalarga olib kelishi haqida to'xtalib o'tdik. Ushbu kiberjinoyatlarning oldini olishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda ko'p davlatlar qatorida bizning mamlakatimizda ham, kiberxavfsizlikni ta'minlash va kiberjinoyatchilik holatlarini oldini olishga qaratilgan ulkan islohotlar ham amalga oshirib kelinmoqda. Ammo, shunday bo'lsada, kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendensiyalarining ishlab chiqilishi tufayli mazkur jinoyatlarning oldini olish mushkul vazifa bo'lib qolmoqda. Bizning fikrimizcha, avvalo bu kabi jinoyatlarning qurboniga aylanib qolmaslik uchun, har bir fuqarodan ogohlik talab etiladi. Zero, bugungi rivojlangan axborot texnologiya asrida har bir shaxs kompyuterida saqlanayotgan axborotlar xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rishi va shaxsiy ma'lumotlarini ishonchli tarzda saqlash imkoniyatlariga egadir. Umid qilamizki, yaqin yillarda qilinayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda global dunyoda qisqa muddat ichida chuqur ildiz otishga ulgurgan kiberjinoyatchilik faoliyatlarining oldi olinadi va unga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boriladi.

	Muammoni shakllantirish	Tavsiyalar va takliflar	U kim uchun mo'ljallangan ?	Kutilgan natijalar
1	Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendetsiyalarining paydo bo'lishi va ushbu jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning sezilarli darajada emasligi sababli kiber-jinoyatlar miqdori oshganligi	<p>Nazariy tabiati:</p> <p>1. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish.</p> <p>Amaliy tabiati:</p> <p>1. Kiberxavfsizlik bo'yicha keng qamrovli qonunni ishlab chiqish.</p> <p>2. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning rolini faollashtirish</p>	Davlatlar, har bir fuqaro va kiberxavfsizlikni tartibga soluvchi organlar.	Kiberjinoyatchilik faoliyatining yangi tendetsiyalarini o'rganish orqali va ularga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish natijasida kiberjinoyatlar miqdorini kamaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gulhayo O'tkir Qizi, E. (2022). kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va respublikamizda amalga oshirilayotgan samarali islohotlar. Scientific Impulse, 1(4), 717–726. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1816> (Original work published December 1, 2022)
2. Muxsimov , U. T. o'g'li. (2023). kiber-jinoyatchilik va unga qarshi kurashish. golden brain, 1(24), 104–109. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4736>
3. Расулев А.К. Компьютерные преступления: уголовно-правовые и криминологические аспекты. Автореф.дисс... кан.юрид.наук. –Ташкент, 2006. –С27
4. <https://lex.uz/uz/docs/-5960604> O'zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 3-modda,15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son
5. Номоконов В.А, Тропина Т.Л. Киберпреступность как новая криминальная угроза. // Криминология: вчера, сегодня, завтра. –2012 г. –1(24). –С47.
6. Tojiyev S. Kiberjinoyatchilik–shaxs va jamiyat xavfsizligiga tahdid. // www.uza.uz
7. The Tallinn administration on the international law applicable in case of cyberlaw // www.Cambridge.org/9781107024434